

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA

O‘ZBEK FOLKLORI TILIDA TIBBIY BIRLIKLARNING
ETNOLINGVISTIK VA LINGVOPOETIK IFODA XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fil 1087 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Saidov Yoqub Siddiqovich,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


Rasmiy oponentlar: Quvvatova Dilrabo Habibovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabbarov Xo'jamurod
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 13 mart soat 9 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14; faks: (+99865221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 111 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 11 » mart kuni tarqatildi.
(2023-yil « 11 » mart dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi)


G.N. Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.L.G. Shabbulayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
koshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Abuzalova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

О‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari..... 3

Наврузова Муяссар Гайбуллаевна

Этнолингвистические и лингвопоэтические особенности выражения медицинских единиц в языке узбекского фольклора 25

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

Ethnolinguistic and linguopoetic features of the expression of medical units in the language of Uzbek folklore 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 55

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA

**O‘ZBEK FOLKLORI TILIDA TIBBIY BIRLIKLARNING
ETNOLINGVISTIK VA LINGVOPOETIK IFODA XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari og‘zaki va yozma nutqida tibbiy birliklarning alohida o‘rni bor. Insoniyat azaldan kasallik turlari, ularning xalqona muolajasini aniqlab, belgi-xususiyatlariga ko‘ra tasniflab kelmoqda. Ba‘zan birliklar talqinida xalq dunyoqarashi, psixologiyasi, e‘tiqodiy tushunchalari, mifopoetik tafakkuri, ularni nomlashda tabu va evfemizmlarga rioya qilinganligiga alohida e‘tibor berilmoqda. Natijada, har bir xalq tilida tibbiy birliklarning muayyan tizimi shakllanib, qadimiy ko‘rinishlari folklor asarlari tilida saqlanib qolganki, ularning etnolingvistika, lingvofolkloristika, lingvopoetika, lingvokulturologiya jihatidan tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida folklor leksikologiyasi, dialektologiyasi va krossmadaniy lingvofolkloristikasi sohasi tobora rivojlanib bormoqda. Folklor tili va unda qo‘llanuvchi so‘zlarning izohli lug‘atini tuzishga e‘tibor oshirilmoqda. Dunyo folklorshunosligida ham xalq tabobati bilan bog‘liq poetik aytimlar borligi, ularning so‘z sehriga ishonchdan kelib chiqqani, janr xususiyatlari alohida e‘tirof etilgan. Shu sirada xalqlar folklori tilida uchraydigan tibbiy birliklarning arxaik, tarixiy hamda zamonaviy, gender turlarini dalillash, leksik-semantik jihatdan tasniflash, morfologik strukturasi kuzatish, lug‘atlashtirish tamoyillarini aniqlash, etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlarini bevosita folklor asarlari misolida oydinlashtirish dolzarb masalalar qatoriga kiritilmoqda.

Mustaqillik yillarida o‘zbek folklori namunalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish orqali xalq tilining taraqqiyot xususiyatlarini ochishga qiziqish ortdi. Bu qiziqish folklor tilida ifodalanib kelayotgan tibbiy birliklar bilan ham bog‘liq. Zero, “Ilmi, tarbiyani to‘g‘ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi”¹. Tibbiy birliklarning xalq tili va folklor asarlaridagi o‘rni, shevalarda turlicha uchrashi, etnolingvistik va etnofolkloristik asoslari, lingvofolkloristik va folklor matnlaridagi lingvomadaniy hamda lingvopoetik ifoda xususiyatlarini aniqlash yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Bu vazifalar yechimi folklor tili leksikologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini berishi jihatidan e‘tiborga molik. Jahon tilshunosligida xalq tili hamisha adabiy tilni boyituvchi asosiy ichki manba sifatida qaralgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» farmonlari, 2017-yil 24-maydagi «PQ-2995-sonli «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi 59-son «Boysun bahori xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Milliy universitetida oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvidagi nutqidan. – Xalq so‘zi, 2019 -yil, 26- may.

tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligi va folklorshunosligida lingvofolkloristika bo'yicha M.A.Bobunova, A.T.Xrolenko, Y.I.Maxortova, N.I.Morgunova, S.Y.Nikitina, V.G. Subbotina, O.L. Ladochkina, N.Y. Ushakova kabi olimlar muhim tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borishgan².

O'zbek folklorshunosligida xalq tabobati bilan bog'liq poetik matnlarda tibbiy birliklarning qo'llanilishi bilan bog'liq lingvistik xususiyatlar hali maxsus o'rganilmagan. Ular haqida etnograf A.Ashirovning asarlarida ayrim fikr-mulohazalar keltirilgan³.

Xalq tabobatiga aloqador poetik aytimlarni yozib olish va o'rganishda o'zbek folklorshunoslaridan M.Alaviya, B.Sarimsoqov, S.Mirzayeva, D.O'rayeva, O.Qayumov tadqiqotlari alohida e'tiborni tortadi. Ular ham xalq tilida qo'llanadigan tabobatga oid leksik birliklar keng qamrovli tadqiqot ob'yekti ekanini, ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati, etimologiyasi, lingvopoetik xususiyatini qayd etishgani kuzatiladi⁴.

O'zbek tilshunoslaridan M.Abuzalova, N.G'aybullayeva, A.Qobilova, D.Sobirova, F.Abdulxairova, G.Roziqova⁵ tadqiqotlarida tibbiy birliklarning

² Бобунова М. А., Хроленко А. Т. Словарь языка русского фольклора: Лексикабылинных текстов. Первый выпуск. – Курск: Изд-во ГУИПП «Курск», 2000. – С.1-112; Махортова Е.И. Лексикографическое представление фольклорной лексики (на материале лексико-тематической группы «Небо, явления природы»): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Орел, 1994. – 17 с.; Моргунова Н.И. Имена существительные в словаре языка фольклора // Фольклорная лексикография. Вып.1. – Курск: Изд-во Курск, гос. пед. ин-та, 1994. – С.7-9; Моргунова Н. И. Лексика народной лирической песни Курской области: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Орел, 1996. – 18 с.; Никитина С. Е. О словаре русского песенного фольклора. Проблемная группа по экспериментальной и прикладной лингвистике. Предварительные публикации. Вып. 74. – М., 1975. – 78 с.; Никитина С. Е. Семантические категории в словаре языка фольклора // Словарные категории. – М.: Наука, 1988. – С. 87-91; Никитина С. Е. Словари языка фольклора: варианты описания слова // Словарь и культура: К столетию с начала публикации «Словаря болгарского языка» Н. Герова. – М.: Институт славяноведения и балканистики РАН, 1995. – С. 94-95; Оссовецкий И. А. Об изучении языка русского фольклора // Вопросы языкознания. – 1952. – № 3. – С. 93-112; Оссовецкий И.А. О языке русского традиционного фольклора // Вопросы языкознания. – 1975. – № 5. – С. 66-77; Хроленко А.Т. Проблемы фольклорной лексикографии // Диалектная лексика. 1977. – Л.: Наука, 1979. – С.229-241.

³ Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 2001. – 30 б.

⁴ Алавиа М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – 316 б.; Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.; Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.; Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуолари. – Т.: Истиклол, 1996. – 96 б.; Ўраева Д. Гулафшон айтимларининг айрим бадий хусусиятлари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 201. – 2-сон. – Б.42-45; Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси): Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 1999. – 26 б.

⁵ Абузалова М Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine <https://mjl.clarivate.com/mjl-beta/home>. Web of Science Group, a Clarivate company. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1. 2021 P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903// Гайбуллаева Н Ўзбек тили эвфемизмларнинг қисқача луғати. Бухоро: Дурдона 2021. Б.71.// Қобилова А. Тиббий матнларда қўлланиладиган перифразалар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) France <https://conferencepublication.com> February 27th 2021// Собирова Д.Тиббий реклама матнларини яратиш усуллари. Бухоро.2021.Б.73.; Абдулхайрова Ф.И.Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик

lingvistik xususiyatlari, qiyosiy tahlillari lingvokulturologik aspektda o'rganilgan. Bizning tadqiqotimizda ilk marta o'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklarni aniqlash, ularning lingvopoetik va etnolingvistik xususiyatlarini ochish vazifasi ko'zda tutildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari» (2020-2024-yy.) yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlarini leksik-semantik, lingvomadaniy asoslarda aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklarning leksik tizimini aniqlash va ularni lug'aviy-ma'noviy, davriy, genderologik tiplarga ajratish;

o'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklarning etnolingvistik va motivatsion asoslarini ochish;

tibbiy birliklar shakllanishi va folklor asarlarida qo'llanishiga tabuning ta'sirini, evfemizlashtirib qo'llanilish sabablarini dalillash;

xalq asarlari tilida uchraydigan kasallik atamaları hamda ularni davolovchilarning nomlari bilan bog'liq leksik birliklarning morfologik strukturasi, derivatsiyasi hamda lingvomadaniy belgilarini asoslash;

o'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklarning ishlatilishiga xos uslubiy, lingvopoetik jihatlarni ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek folklori tilidagi tibbiy birliklarning leksik, semantik, morfologik, derivatsion, etnolingvistik, lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, umumlashtirish, alohidaliklarni aniqlash, qiyosiy-tarixiy kabi tadqiq metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

folklor tilida mavjud tibbiy leksik birliklarni klasterli yondashuv asosida so'z turkumlari bo'yicha ot (bezgak, terlama), sifat (falaj, shol, titroq), fe'l (isitmalash, qaltirash, esdan og'ish), talaffuziga (bir bo'g'indan besh bo'g'ingacha, urg'uli), orfografiyasi, morfemikasi, semantikasi, idiomatikasi, uslubi, sintagmatik va paradigmatik aloqalari aniqlangan;

o'zbek folklori tilida tibbiy birliklarning shakllanishiga tabuning xalq e'tiqodiy qarashlariga ta'siri, ularning ko'pincha iboralar, evfemizmlar, perifrazalar, metaforalar orqali ifodalanish uslubiyati etnolingvistik va lingvopoetik jihatdan isbotlangan;

kasallik nomlari tarkibida mifonimlar, ranglar (koloronimlar), hayvon nomlari (zoonimlar), o'simlik nomlari (fitonimlar), qush nomlari (ornitonimlar) ishtiroki

манзараси: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. Тошкент, 2021. – Б.23.; Розикова Г. Махмуд Кошғарий “Девон”ида қўлланган тиббиётга доир сўз ва атамаларнинг лексик-семантик таҳлили/ Хоразм та’мин академияси ахборотномаси. 2020.-№9.-187-191.

kuzatilishi, o‘zbek tilida kasalliklar tufayli insonni nomlash (bemorlikka daxldor antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), eponimlar ham uchrashi, bunda ma’no ko‘chish usullari (metafora, metonimiya, sinekdoxa) o‘rni dalillangan;

folklor asarlari tilida uchraydigan kinna, badik, gulafshon, qulonchiq, boshog‘riq, o‘lat va boshqa kasallik atamalari hamda ularni davolovchi tabib, kinnachi, badikxon, qushnoch, dilbardor va boshqa singarilarning kasbiy nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning semantikasi, morfologik strukturasi, etimologiyasi hamda derivatsiyasi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o‘zbek xalqi tilida qo‘llanadigan tibbiy birliklar va ularning mazmun-mohiyati xalq ijtimoiy turmushida azaldan tibbiy madaniyat bilan bog‘liq falsafa, leksik tizim shakllanganidan dalolat berishi ilmiy asoslangan;

o‘zbek folklori tilida uchraydigan tibbiy birliklar xalq og‘zaki nutqi orqali yozma nutqqa ham ko‘chgani, ularning kelib chiqishiga xalq dunyoqarashi, psixologiyasi, e‘tiqodiy tushunchalari, mifopoetik tafakkuri, tabu katta ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan;

o‘zbek folklori tilida uchraydigan tibbiy birliklarning leksik-semantik, lingvomadaniy, etnolingvistik, lingvofolkloristik, lingvopoetik, derivatsiyasi, uslubiyati, gender xususiyatlari bo‘yicha olingan nazariy xulosalar tilshunoslik bo‘yicha yaratiladigan yangi darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan;

“O‘zbek folklor tilida tibbiy birliklarning qisqacha izohli lug‘ati” nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning bevosita folklor matnlaridan olingani, keltirilgan tahlillar qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, tavsifiy, tahliliy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek folklori tilidagi turli leksik birliklarni tarixiy-etimologik, funksional-uslubiy, etnolingvistik va lingvofolkloristik tizimda o‘rganib, leksik-semantik, lingvomadaniy, lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va umumta’lim tizimida xalq tilidagi leksik birliklarning turlari bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tish, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”, “Matn lingvistikasi”, “Lingvofolkloristika”, “Til tarixi”, “Dialektologiya” “Etnolingvistika”, “Soha lingvistikasi”(tibbiyot yo‘nalishida) kabi fanlardan yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ular bo‘yicha ilmiy-ommabop ko‘rsatuvlar uyushtirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning lingvopoetik va lingvostilistik ifoda xususiyatlarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek folklori tilidagi tibbiy birliklarning leksik, semantik, morfologik, derivatsion, stilistik, etnolingvistik, lingvomadaniy xususiyatlari, shuningdek, xalq tilining tibbiy birliklardan foydalanish uslubiyati, lingvopoetik maqsadi va

vazifalari tadqiqi bilan bog‘liq nazariy xulosalardan A-OT-2021-2-raqamli «Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish» nomli amaliy loyihada (2020-2021-yy.) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 19-dekabrda 04-04/01-2696-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tibbiy birliklarning xalq tili va folklor asarlaridagi o‘rni, shevalardagi turlicha ko‘rinishlari, etnolingvistik va etnofolkloristik asoslari aniqlangan.

folklor asarlari tilida uchraydigan kinna, badik, gulafshon, qulonchiq, boshog‘riq, o‘lat kabi kasallik atamalari hamda ularni davolovchi tabib, kinnachi, badikxon, qushnoch, dilbardor va boshqa kasallik va ular bilan bog‘liq kasb nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning semantikasi, morfologik strukturasi, etimologiyasi hamda derivatsiyasiga oid xulosalardan oliy ta’limning 5111700-Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmada foydalanilgan. (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 2-avgustdagi 275-son buyrug‘i, 257-010-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada leksikologiyaga va morfologiyaga oid mashqlar mazmuni tibbiy birliklar bilan boyitilgan hamda o‘quv adabiyoti takomillashtirilgan;

o‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning shakllanishida tabuning, xalq e’tiqodiy qarashlarining ta’siri, ularning ko‘pincha evfemizmlar orqali ifoda etilishi, o‘zbek folklorida xalq tilining tibbiy birliklardan foydalanish uslubi, lingvopoetik maqsadini yoritishdagi vazifalardan O‘ZMTRK “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanildi. (“O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yil 20-dekabrda 04-36-2096-sonli ma’lumotnomasi) Natijada tele va radiodasturlarda berilgan ko‘rsatuvlar orqali tinglovchilarning o‘zbek nutqida qo‘llanadigan tibbiy birliklar va ularning mazmun-mohiyati xususidagi qarashlari, tibbiy madaniyat bilan bog‘liq tushunchalari boyitildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xalqaro jurnallarda 5 ta maqolalar chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Folklor tili va etnolingvistikaning o‘zaro**

munosabati” deb nomlangan bo‘lib, 3 fasldan iborat. Birinchi fasl **“Folklor tili” tushunchasining mohiyati va ko‘lami**” deb nomlangan. Dunyo tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida lingvofolkloristika yangi fan sifatida o‘rganila boshlandi. Ushbu soha doirasida qator tadqiqotlar olib borildi. M.A.Bobunova⁶ folklor asarlari tilidagi tushunchalar, g‘oyalar mohiyati, maqsad va vazifalarini leksik-semantik tahlillar orqali o‘rgansa, I. Kiseleva, I.S. Klimas, I.Y.Maxartova, T.G.Ivanova, K.F.Zaxarova⁷ tadqiqotlarida folklor tili leksikografiyasi va folklor tili dialektologiyasiga doir qator izlanishlar olib borilgan. Folklor leksikologiyasi lingvofolkloristikaga aloqador soha bo‘lib, folklor tilining lug‘at boyligini, xalq og‘zaki poetik ijodida qo‘llanuvchi so‘zlarni o‘rganishga qaratilgan. Uning vazifalari quyidagilarda ko‘rinadi:

1) folklor tilidagi so‘zlar ko‘lamini aniqlash. Ularni yaxlit leksik tizim ko‘rinishida o‘rganish;

2) folklor tilidagi so‘zlarning denotativ (o‘z), konnotativ (ko‘chma), bir ma‘noli (monosemantik) yo ko‘p ma‘noli (polisemantik) leksik-semantik qatlamlarini ochish;

3) folklor tilidagi so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra shakldosh (omonim), ma‘nodosh (sinonim), uyadosh, giperonim kabi turlarini oydinlashtirish;

4) folklor tilidagi so‘zlarni tarixiylik (arxaizm, istorizm) va zamonaviylik (neologizm), genderlik, uslubiy (stilizm), sheva (dealektizm) yoki adabiy nutqqa xoslanganlik, o‘z yoki o‘zlashma (olinma)ligiga ko‘ra etimologik nuqtayi nazardan kuzatish;

5) onomastika hamda terminologiya bilan munosabati va hokazolar.

O‘zbek folklor tilini o‘rganishga e‘tibor qadimdan mavjud. Bunga tilshunos, folklorshunos va elshunos M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari dalil bo‘la oladi. Kitobda ayrim tibbiy birliklar nomi keltirilgan. Ularning qo‘llanilishi o‘sha davr folklori namunalari: maqol, qo‘shiq matnlaridan keltirilgan misollar orqali dalillangan.

Folklor asarlarida qo‘llanilgan so‘zlar folklor leksikonini tashkil qiladi. Ularning aksariyati qadimiy(arxaikligi), tarixiyli, shevaga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ularni tez va oson tushunib bo‘lmaydi. Buning uchun qadimiy ajdodlarning madaniy turmush sharoitidan, e‘tiqodiy qarashlaridan, diniy tushunchalari hamda magik marosimlari tarixidan bilimga ega bo‘lish talab qilinadi.

Folklor tili tarkibini ko‘proq dialektizmlar, etnografizmlar, lingvokulturemalar, arxaizm va istorizmlar tashkil qiladi. Shuni inobatga olib, mazkur soha mutaxassisi M.A.Bobunova “folklor tili lug‘atining obyektini an‘anaviy leksikografik amaliyot tomonidan to‘g‘ri o‘zlashtirilmagan lingvistik birliklar”

⁶ Бобунова, М.А. Словарь языка русского фольклора: лексика былинных текстов (первый выпуск) / М.А. Бобунова, А.Т. Хроленко. Курск: Изд-во ГУИПП «Курск», 2000. - 112 с.)

⁷ Киселева, О.И. Язык фольклора как источник диалектной лексикографии: автореф. дис. . канд. филол. наук: 10.02.01. -Томск, 1988.- 17 с.// И.С.Климас. Фольклорная лексикография. Курск, 1998. - Вып. 10. -С.26-30.// Махортова Е.И. Лексикографическое представление фольклорной лексики (на материале лексикотематической группы «Небо, явления природы»): автореф. дис. . канд. филол. наук: 10.02.01 / Махортова Елена Ивановна. -Орел, 1994.- 17 с// Иванова, Т.Г. Исследование по фольклорной лексикографии / Т.Г. Иванова // Живая старина. 2004. - №4 (44). - С.53-55.// Захарова, К. Ф. Диалектное членение русской речи //1973. №5. - С.106-116.

ekanini alohida qayd etadi⁸.

Folklor asarlari tili milliy tilning o'ziga xos og'zaki shakli hisoblanadi. U muayyan yaxlit tizimni hosil qiladi. D.O'rayeva ta'kidlaganidek: "Tilshunosligimizda hali folklor tili leksikografiyasi nazariyasi ishlab chiqilgan emas. Bu borada faqat u yoki bu dostonning tili bo'yicha yaratilgan ilmiy tadqiqotlar borligini aytish mumkin, xolos".⁹ Holbuki, folklor tili – milliy til tarkibini va tarixini, taraqqiyot xususiyatlarini, lug'at boyligini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Folklor asarlarining juda katta qismi o'tmishda yaratilgani, qadimiyligi tufayli ularda qo'llanilgan so'zlarning ko'pchiligi bugungi kun o'quvchisi ularni tushunishi uchun izohtalab bo'lib qolgan. Mana shu jihatdan ham folklor tilini maxsus o'rganish ehtiyojga aylangan.

Shuningdek, folklor tilini o'rganishda janr tuzilishi, uning matni ko'lami (makro yoki mikrostrukturasi) ham e'tiborga olinishi lozim, chunki bu orqali folklor leksikasining chastotasini belgilab ko'rsatish imkoni paydo bo'ladi. Folklor tili folklor ichidagi xalq nutqini o'rganish imkonini beradi. Buni uch aspektda olib borish mumkin:

1.Xalq og'zaki poetik ijodida o'z qat'iy o'rniga ega bo'lgan folklor janrlari (maqol, topishmoq, olqish, qarg'ish, afsona, rivoyat, ertak, doston, qo'shiq, askiya, latifa, lof kabi) tilini o'rganish.

2.Folklor janrlari tilidagi muayyan leksik birliklarni (lingvokulturemalar, etnografizmlar, tabular, evfemizmlar, dialektizmlar, psixologizmlar, stilizmlar, tibbiy birliklar kabi)ni o'rganish.

3.Folklor janrlari tilida badiiy maqsadlarda qo'llangan va poetik san'at darajasiga ko'tarilgan so'zlar qo'llanishi, ular bilan bog'liq ma'no ko'chish yo'llarini (epitetlar, tashbehlar, metaforalar, metonimiyalar, sinekdoxalar, kinoya kabi) tadqiq qilish.

Folklor terminlarining milliy tilimizda o'zlashishi muayyan bir jarayondir. Ular milliy tilning lug'at boyligini oshiruvchi muhim manbalardir.

“Folklor tilining leksik qamrovi va unda xalq jonli tilining mavqeyi” deb nomlangan ushbu bobning ikkinchi faslida o'zbek folklorining leksik tarkibi uning janrlari haqida fikr yuritiladi. Qadimiy tasavvurlar asosida yuzaga kelgan, so'zning sehr-jodu kuchiga egaligi bilan bog'liq bo'lgan afsun-duolar mazmunan teranligi, tarixiy asoslari juda olis zamonlarga borib taqalishi, o'ziga xos hayotiy-maishiy vazifalari va xalq tabobatida ijro o'rniga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hali sof ilmiy meditsina vujudga kelmagan davrlarda kishilar turli xildagi kasalliklardan, tasodifiy falokatlar (ilon, qoraqurt, chayon chaqishi) kabilardan afsun-duolar orqali qutulganlar. Folklorshunos olim S.Mirzayevaning «O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati» nomli monografiyasidagi tibbiyotga oid xalq afsun-duolari tahlilga tortilgan¹⁰.

Xalq afsun-duolari hamma vaqt buyruq, (imperativ) ohangida ijro etiladi. Masalan, qoraqurt chaqqanda o'qiladigan afsun-duodan keltirilgan quyidagi

⁸ Бобунова М.А. Фольклорная лексикография: становление, теоретические и практические результаты, перспективы. – Курск: Изд-во Курск, гос. ун-та, 2004. – 240 с.

⁹ Ўраева Д. Ўзбек фольклори лексикографияси такомилида Тўра Мирзаевнинг ўрни // Эътиқод ва софлик. Тўплам. – Т.: “Tafakkur tomchilari”, 2021. – Б.198-208.

¹⁰ Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадийати. Монография.-Тошкент. 2005. -Б.67.

parchada ham asar matni keskin buyruq ohangi bilan yakunlanadi:

Alas-alas, pok qilg'in, alas-alas, pok qilg'in.

Ziyonlardan xalos et, zahmatlardan xalos et.

Alas-alas, alas-alas, qon tilasang qon berayin,

Jon tilasang jon berayin, Bu bechorani qo'y tegma.

Bu bechoradan ket, tegma! Alas-alas, alas-alas.

Alas-alas qilish paytida aytilgan asosiy matn mazmuni bemor tanasidan yomon ruhlarni quvish va uni sog'aytirishga da'vat etishdan iborat. Albatta, o'tmishda alas-alas marosimi paytida ijro etilgan aytimlar rang-barang bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo bizga qadar ular to'la va o'z shukuhida yetib kelmagan.

Xalq tabobatida ranglar bilan bog'liq bir qator kasallik nomlari mavjudki, ular ham xalq tomonidan kasallikning rangiga, holatiga, yuqumliliga qarab nomlangan. Bugungi kunda bu atamalarning ayrimlari tibbiy terminlar ko'rinishida talqin qilinadi. Masalan, sariq (gepatit) kasalligi, sariq tana kasalligi, pes yoki oq (vitiligo) kasalligi, oq qon kasalligi, qizilcha, gul (krasnuxa) kasalligi, qizamiq (chechak) kasalligi, qizil yassi temiratki kasalligi, qorason (gangrena) kasalligi, qoraqurt kasalligi, ko'kyo'tal kasalligi kabi atamalarni yana davom ettirishimiz mumkin. Bunday kasalliklarni davolash bilan bog'liq marosimlarda aytiladigan afsun-duolarda ranglarga e'tibor kuchliligini quyidagi misol vositasida ham tasdiqlab o'tish mumkin

Safed bod, siyo bod, surx bod, buro bod.

Kabo't bod, zard bod, siyo bod, buro bod.

Kuf chiq, suf chiq, chiq, chiq, chiq.

Ushbu she'riy shakldagi gulafshon aytimlarida safed-oq, siyo-qora, surx-qizil, kabo't-ko'k, zard-sariq besh xil rangga murojaat qilingan. Ularning hajmi har xildir. Asosiy mazmuni esa bemor badanidan kasallikni quvish, ko'chirishga qaratilgan. Shu sababli unda «ko'ch» buyruq fe'li ko'p bora takrorlanib keladi va gulafshonning ko'chishi uchun aniq manzillar aytiladi: Ma'lumki, ibtidoiy kishilar qoraqurt yoki boshqa hasharot, maxluqlar chaqishi oqibatida kishi tanasiga kirgan zaharni kasallik sifatida tasavvur qilganlar. Bu kasallik esa ma'lum bir sehrli nafasga ega bo'lgan kishilar amriga bo'ysunadi deb qaralgan.

Qizilcha, suvchechak, badik toshganda o'tkaziladigan marosim va badik aytimlari, ularning "badik", "gulafsho" kabi xalqona atamalar bilan yuritilishi, aytimlarning mazmuni va badiiy xususiyatlari haqida B.Sarimsoqov batafsil to'xtalgan¹¹.

Frezerning ko'rsatishicha, taqlidiy sehr ibtidoiy kishilar tasavvuricha, kishilarni turli xastaliklardan xalos etishda katta yordam beradi.

Avrash afsunlarida muqaddas "Qur'on"dan olingan suralar bilan bir qatorda qadimiy majusiylikka aloqador duolar ham o'qiladi. Ular bizning nazarimizda, qadimgi sanskrit tilidan qolgan bo'lib, tushunmay ijro etish oqibatida juda ko'p so'zlar noto'g'ri shakllarga tushib qolgan. Shuning uchun ularning mazmunini sharhlashning imkoni yo'q. Masalan: Ari chaqqanda o'qiladigan afsun-duoning boshqa bir namunasi folklorshunos B.Sarimsoqov tomonidan 1986-yilda Ahmadjon Soyibnazar o'g'lidan yozib olingan bo'lib, bu afsun matni tojik

¹¹ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Тошкент: Фан, 1986. 234.6

tilidadir: «Zara hasta zalil, rang hastu xumor, miyon bastu xalal zambur, mo badoxan, tu bokunat magazi, kuf-suf, chiq-chiq». Matn tarjiması quyidagicha mazmunni anglatadi: “Sap-sariq ranging bor, bu rang kishining ko‘nglini aynitadi, bela bo‘g‘iq sariq ari, biz og‘zimiz bilan chaqamiz, sen esa orqang bilan chaqasan, kuf-suf, chiq- chiq”¹².

Yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi gapda «ari» so‘zi o‘rnida «zard hasti zalil» deb uning rangi va zaharli ekanligiga ishora qilingan. Ikkinchi gapda esa ari «zambur» deb aytilmoqda, ammo u o‘zbeklar uchun tushunarli bo‘lmagan tojik tilida ifodalangan, keyin uning beli ingichkaligiga ishora qilingan. Uchinchi va to‘rtinchi gaplarda esa ariga xos orqasi bilan nayza sanchish xususiyati haqida so‘z yuritilgan. Demak, afsun-duolardagi so‘z va u ifodalagan narsa bilan uzviy bog‘liqlik tushunchasi ibtidoiy kishilar tafakkuri, ongi va dunyoqarashi bilan bog‘liq holda shakllangan. Ma‘lum bo‘ladiki, afsun o‘zbek tiliga tarjima qilinsa, oddiy gaplar yig‘indisiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham afsunlarning hech kim tushunmaydigan tillarda bo‘lishi ularning bemorga ko‘rsatadigan ruhiy ta‘sir qudratini orttiradi va afsun-duolarda sehrlilik, jodu qudrati saqlanishiga shohid bo‘lamiz.

“Folklor tilining etnolingvistika va lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi” deb nomlangan uchinchi faslida folklor tilida kasallik nomlarini atashda muayyan bir davr ruhiyati, xalq urf-odatları ta‘siri namoyon bo‘ladi. Turkiy xalqlarda azaldan kasalliklarni nomlashda o‘ziga xos tartib-qoidalar shakllangan. Bunda ko‘pincha tabu-taqiqlarga amal qilinib, ma‘lum bir evfemizmlardan foydalanilgan.

A.Omonturdiyev aytib o‘tganidek, “rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o‘smir surunkali kasal bo‘laversa, nomi (xususan, Olloh, payg‘ambar, avliyo yoki umuman, buyuklar nomi bilan atalgan bo‘lsa, nomini ko‘tarolmadi deb hisoblanib) qaytarilib kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo‘shaloq nom (biri rasmiy, biri evfemik atama)ga ega bo‘lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqlovchi va davolovchi nom sifatida faollashib ketadi”¹³.

Xuddi shuningdek, oilada bola turavermasa, navbatdagi tug‘ilgan chaqaloqqa, o‘g‘il-qizligiga qarab, O‘lmas / O‘lmasoy; Tursun / Tursunoy; Turg‘un / Turg‘unoy kabi “balo-qazo” sifatida qaraladigan dardlardan himoyalash, asrab-avaylash, yovuz ruhlarni chalg‘itish maqsadida ismlar qo‘yilgan¹⁴. Biz bunday ismlarni “evfemik ismlar” deb atashni ma‘qul ko‘rdik. Ko‘rinadiki, ismlar (antroponimlar) ham insonni kasalliklardan saqlovchi davo shakli sifatida qaralgan. Salomat(xon), Omon, Eson, Darmon, Quvvat kabi antroponimlar shular sirasidandir.

Shunday kasalliklar borki, ularning nomi toponimlar bilan bog‘liq. Ularning toponimlar bilan nomlanishida bir qator sabablari bor:

- kasallikning yuqumli ekanligi bilan;
- o‘sha joyning shifobaxshligi bilan;
- kasallik belgilari bilan toponimning o‘xshashligi asosida;

¹² Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Монография.-Тошкент. 2005. -Б.67.

¹³ Омонтурдиев А. Сўз магияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – №1. – Б.34-38

¹⁴ Begmatov E. Ism chiroyi. – Toshkent, 1994. – Б.74-75; Begmatov E. Nomlar va odamlar. – Toshkent, 1966. – Б.27-29.

- ma'lum kasallik bilan bemorlangan aholi yashaganlik asosida.

(1.1.-jadval)

Joy nomlari bilan bog'liq kasallik nomlari

Joy nomi	Izohi	Hududi
Qo'tirrabot, qo'tirbuloq, qo'tirgansoy, qo'tirtosh	Qo'tir – invazion teri kasalligi; qo'tir kanalar (qichima kanalar) qo'zg'atadi. Qo'zg'atuvchilar odamga, asosan, bemordan yoki uning buyumlari (mas. sochiq, kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak) orqali o'tadi.	Buxoro viloyatida joylashgan, qo'tir kasalligi bilan kasallanganlar ushbu hududda istiqomat qilishgan. Toshkent shahrining Ko'kcha dahasi mahallaridan biri
Moxovguzar, Moxov-qishloq	Moxov kasalligi bilan chalinganlar istiqomat qilishgan. Moxov (arabcha, maxv- yo'q qilish yoki chetlatish) – butun organizmni, xususan, teri, nerv sistemasi hamda ichki a'zolari zaharlaydigan surunkali infeksiyon kasallik.	Toshkent shahrining Ko'kcha dahasi mahallaridan biri.
So'galmasjid	Teri saratoni kasalligi bo'lib, xalq tilida “ ag'az” deb ham yuritiladi. Aslida so'galni virus paydo qiladi. U virus sifatida odamdan odamga yuqadi. Uning virusi tanadagi ko'zga ko'rinmas jarohatlarga tushib qo'l berib ko'rishish, bitta idishdan ovqatlanish, suv ichish, suv havzalarida cho'milish oqibatida yuqadi.	Toshkent Shayxontohur dahasi mahallaridan biri
Quyunchiq	Epilepsiya (yun. – tutaman), tutqanoq, quyunchiq – bosh miyaning surunkali kasalligi; ko'pincha tirishish, hushdan ketish, bemor shaxsining o'zgarishi, ayrim hollarda aqliy qobiliyatning susayib borishi bilan kechadi. Bosh miyaning tutqanoq tutishiga nisbatan tug'ma yoki turmushda orttirilgan o'ta moyilligi, shuningdek, nasliy tug'ma nuqsonlar, bosh va orqa miyaning yuqumli kasalliklari, jarohatlari, tug'ruq chog'idagi noxushliklar, endokrin omillar, nogahon qo'rquv sabablidir.	Amudaryo o'zanlari orasidagi tepalik nomi.
Afg'on yara	Afg'on qishlog'i - teri kasalligi bo'lib yiringli yara, chipqon. To'qima yoki a'zolarining shikaslangan joyida yiring to'planishi.	Farg'ona viloyati Qo'qon shahri yaqinidagi qishloq.

Dissertatsiyaning “**O'zbek folklori tilida tibbiy birliklarning ifoda xususiyatlari**” nomli ikkinchi bobi ham uch fasldan iborat. “**Tibbiy birliklar ifodasi hamda ularning somatizmlar bilan bog'lanishi**” deb nomlangan faslda tabib leksemasining lug'aviy ma'nolari tahlilga tortiladi. Tarixdan ma'lumki, nihoyatda tajribali, yetuk, o'qimishli tabiblarni xalqimiz hakim deb atagan. Buqrot (Gippokrat), Jolinus (Galen), Abu Bakrar Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi hakim-tabiblar mashhurdirlar. Jahon etnologiya fanida xalq tabobati bilan shug'ullanuvchilarni ikkita katta guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: Giyohlar bilan davolovchi tabiblar va afsunlar yoki so'z sehri bilan davolovchi

tabiblar. Tabiblarni davolash usuliga qarab quyidagi guruhlariga ham ajratish mumkin: “ma’naviy tabiblar” (shomon, baxshi), “tana xastalıkları tabiblari” folbinlar, “shifobaxsh giyohlar bilan davolovchilar” (dunyoviy bilimga asoslangan tabiblar), “ilohiy, g‘ayritabiiy kuchlar asosida davolovchilar”. Ular xalq orasida davolash usullariga qarab: baxshi, folbin, azaimxon, sadqoqchi, mulla, duoxon, parixon va h.k. kabi nomlar bilan ataladi.

Ularni xalqimiz bajaradigan vazifasiga ko‘ra quyidagicha nomlar bilan ataydi:

1. Siniqchilar. Xalq tabobatida keng tarqalgan tabib siniqchilar, ular “dastakori”, “shikastaband” deb ham nomlanadi.

2. Jarrohlar. O‘zbeklarda jarrohlar tish olish, xatna qilish, qon olish va boshqa murakkab jarrohlik usullarini bilishadi. Tabobatda qon olishda zulukdan foydalaniladi. Shu sababli, nashtar va qortiq yordamida qon olish (hijoma) amali qo‘llanilgan.

3. Dorigarlar, attorlar. An’anaviy dorixonalar ochilgunga qadar aholini dori mahsulotlari bilan attorlar ta‘minlagan. Aksariyat dorigarlarning bozorlarda joylari bo‘lgan.

4. Yurak ko‘taruvchi tabiblar. Xalq tabobatida teri-tanosil va ichki kasalliklarni davolovchi, yurak ko‘taruvchi tabiblar ham mavjud. Teri-tanosil kasalligini davolovchilar teridagi turli yaralar qizamiq, oq dog‘ kabi xastalıklarıni davolashadi.

5. Dam soluvchi tabiblar. Bunday tabiblar ruhiy tushkunlikka tushib qolgan, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi bilan bezovtalanayotgan bemorlarga afsun-duolar yordamida dam soladilar.

Xalq tilida aksariyat kasalliklarning nomi o‘sha og‘rigan, xastalangan, kasallikka chalingan tana a‘zolarining nomi bilan bog‘lab aytilishi kuzatiladi. Jumladan, bosh og‘rig‘i, quloq og‘rig‘i, til og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, oyoq og‘rig‘i, bel og‘rig‘i, qo‘l og‘rig‘i, oshqozon og‘rig‘i kabi.

Bundan ko‘rinadiki, somatik so‘zlar, ya‘ni inson tana a‘zolari yoki ularning qismlari nomi tibbiy atamalar tarkibida alohida o‘rin tutadi va ularning shakllanishida asos sifatida xizmat qiladi.

Bosh bilan bog‘liq kasalliklar: boshog‘riq, bosh yorilishi. Bosh insonning asosiy tana a‘zolaridan biri bo‘lgani uchun uning hamisha omon bo‘lishi olqishlarda “Boshing omon bo‘lsin”, “Boshing toshdan bo‘lsin” deya alqansa, qarg‘ishlarda “Boshing yorilsin”, “Boshing darddan chiqmasin” deb aytiladi.

Ko‘z bilan bog‘liq ko‘z oqishi, ko‘zga gul (gulday qizil dog‘) tushishi, ko‘z yumilib qolishi, ya‘ni ko‘rmay qolishi, ko‘z oqarishi, ko‘z qizarishi kabi kasallik turlari bor. Shuning uchun ko‘pincha xalq qarg‘ishlarida yomonlarga shu kasalliklarni tilash motivi yetakchilik qilganini kuzatish mumkin: “*Ko‘zing oqib tushsin*”, “*Ko‘zingga gul tushsin*”, “*Ko‘zing ko‘r bo‘lsin*” kabi. Bunday qarg‘ishlar insonning ko‘rish imkoniyatiga zarar yetishini tilash maqsadi bilan bog‘liq. U bilan olqishlarda esa “Ko‘zingning nuri ketmasin”, “Ko‘zing doim ravshan bo‘lsin” deyiladi.

Qo‘l bilan bog‘liq kasallik nomlari: qo‘li sinmoq, qo‘li burchimoq, qo‘li qayrilmoq, qo‘li qaltis yemoq, qo‘li akashak bo‘lmoq, qo‘li qaltirashi. Shuningdek ayrim qarg‘ishlarda yomonlarga shu kasallikni ravo ko‘rish maqsadida “*Qo‘ling sinsin*”, “*Qo‘ling kesilsin*”, “*Qo‘ling akashak bo‘lsin*”, “*Qo‘ling shol bo‘lsin*” deb aytiladi. Chunki qo‘li singan kishi biror-bir narsani olish, berish, ushlash,

tutish, uzatish xatti-harakatidan mahrum bo‘lib, qiynaladi. O‘z-o‘zini boshqarishi qiyin bo‘ladi.

Oyoq bilan bog‘liq kasalliklar: oyoq sinishi, oyog‘ini bosolmaslik, oyoq og‘rig‘i, oyoq burchishi, oyog‘i qaltis yeyishi, oyog‘i shol bo‘lishi, oyoq uvishishi, tovon yorilishi, tizza qaltirashi, tizza bukilmaligi va boshqalar. Oyoq ham insonning eng muhim tana a‘zosi. Usiz inson yurishga, tikka turishga, bordikeldiga qiynaladi. Shuning uchun xalq qarg‘ishlari orasida “*Oyog‘ing sinsin*”, “*Oyog‘ing shol bo‘lsin*”, “*Oyog‘ing qirqilsin*”, “*Oyog‘ing akashak bo‘lsin*” kabilar uchraydi.

Bundan xalq tilidagi kasallik nomlarining makro va mikro leksik-semantik maydonlarini hosil qilishi anglashiladi. Ularni mikro leksik-semantik maydonlarga ajratishda insonning qanday xatti-harakati tizimiga shikast yetishiga qarab quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Inson aqliy va ruhiy, asab tizimi, fikrlashi, o‘ylashi, qarorlar qabul qilishi jarayonining buzilishini ko‘rsatuvchi kasalliklar: quyonchiq, jinni, aljiragan...

2. Ko‘rish harakati bilan bog‘liq kasalliklar: ko‘r, shabko‘r, ko‘zi butov, ko‘ziga gul tushmoq, ko‘zi oqarmoq, ko‘zi qizarmoq, ko‘zi xiralashmoq, ko‘zidan nur ketmoq ...

3. Eshitish harakati shikastlanishi bilan bog‘liq kasalliklar: kar, qulog‘i og‘ir, quloqog‘riq...

4. Hid va ta‘m bilish harakatini kamaytiruvchi kasalliklar: burun bitishi, tumov, til og‘riq...

5. Yeyish harakatini qiyinlashtiruvchi kasalliklar: til og‘riq, og‘iz og‘riq, tomoq og‘riq, iyak tushishi...

6. Tishlash, chaynash harakatini buzuvchi kasalliklar: tish og‘riq, og‘izog‘riq, tish tushishi...

7. Olish-berish harakatini cheklovchi kasalliklar: qo‘l sinishi, qo‘l sholligi....

8. Borish-kelish, yurish harakatini cheklovchi kasalliklar: oyoq sinishi, oyoq sholligi....

9. Hazm qilishni qiyinlashtiruvchi kasalliklar: oshqozonog‘riq, yurakburuq, ichak buzilishi, ichburug‘...

Kasallik nomlari bu tarzda alohida-alohida o‘rganilsa ham, ular inson tana a‘zolarining harakatlanishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi va bir-biriga bog‘lanib ketadi. Shuning uchun ular tilning leksik tizimida alohida mikromaydon sifatida qabul qilinib, muayyan lug‘aviy ma‘noviy guruhlarning sinfi sifatida e‘tirof etiladi.

Qizig‘i shundaki, somatizm tarkibli birikmalarning sifatlari mavjudlik miqdoriga ko‘ra bir yoki ikki raqami bilan bog‘lansa-da, baribir ular xuddi bittadek aytiladi: ko‘zi og‘rimoq (holbuki, ko‘z ikkita, uning har ikkalasi ham og‘riganmi yoki o‘ng yoxud chapimi, noma‘lum). Bunday fikrni tishi og‘rimoq (tishlar o‘ttiz ikkita), oyog‘i, qo‘li, o‘pkasi (o‘ngimi yo chapimi) og‘rigan deganda, anglash mumkin.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “*O‘zbek folklori namunalarida tibbiy birliklarning lingvopoetik talqini*” deb nomlanadi. O‘zbek folklori namunalarida tibbiy birliklarning lingvopoetik talqinini ko‘p kuzatish mumkin. Iboralar tarkibida insonning fiziologik holat bildiruvchi yosh tug‘ilish, o‘lim va salomatlik semalari orqali tahlilga tortamiz.

Yosh belgisi bilan alohida farqlanuvchi frazeologizmlar qatoriga *ona suti og'zidan ketmagan, balog'atga yetgan, suyagi qotmagan, o'n gulidan bir guli ochilmagan (yoshlik), bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda, esini tanigan, sharti ketib, parti qolgan, (keksalik)* kabi iboralar mansub. Bunday frazeologizmlar uchun xos bo'lgan umumiy ma'no belgisi "yosh" semasi sanaladi. O'z tarkibida bunday frazeologizmlarni "yoshlik" hamda "keksalik" belgisi bilan zidlangan frazeologizmlarga ajratish mumkin.

Demak, ushbu izoh orqali frazeologik birlikning faqatgina keksalik belgisi bilan emas, balki bemorlik belgisi bilan ham ifodalanishini nazardan soqit qilmaslik kerak. *Mening bir oyog'im yerda bo'lsa, bir oyog'im go'rda bo'lsa, to'satdan o'lib qolsam...* (So'zlashuvdan)

Ushbu frazeologizmlarning yosh belgisini aniqroq ifodalash uchun ular o'rtasidagi darajalanish munosabatini¹⁵ ko'rsatib o'tish mumkin: *suyagi qotmagan - balog'atga yetgan - o'n gulidan bir guli ochilmagan - sharti ketib parti qolgan - bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda.*

Xalq paremlarida kasallik, og'riq, dard, bemorlik bilan bog'liq maqollar borki, ularning har biri o'z qo'llanish o'rni va mazmundorligi bilan ajralib turadi. "Kasallik" semalarini ifodalovchi paremiologik birliklar:

*Vahima qilish yarim kasallik,
Xotirjamlik yarim boylik,
Sabr esa shifoning boshlanishidir.*

Xalq donishmandligi aks etgan ushbu maqolda davo sirlari bayon etilishi bilan birga, hayot haqiqatlari ham aks etgan, Ibn Sino ham "Kasalliklarning eng og'iri – vahima va qo'rquv bo'lsa, eng yaxshi davo - xotirjamlikdir" deb aytgan.

Folklorning yaxshi niyat ifodasiga qaratilgan mustaqil janri hisoblangan olqishlarda kasallik nomlariga tez-tez murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Masalan: "*Og'zi oshga yetganda burni qonamasin*"; "*Beling bukilmasin*", "*Beli sinmasin*".

Odatda, kelinga qaynonasi zirak taqayotganda "*Qulog'ing dard ko'rmasin*" desa, qo'liga uzuk taqayotganda "*Qo'ling dard ko'rmasin*" yoki "*Qo'l-oyog'ingiz aslo dard ko'rmasin*", "*Tanangiz dard ko'rmasin*" deydi. Bular marosim olqishlari tusini olgan¹⁶. Shuningdek, insonga yangi bosh kiyimi kiydirilayotganda "*Boshingiz toshdan bo'lsin*", "*Boshing omon bo'lsin*" deb yaxshi niyat izhor qilinadi.

Qarg'ishlarda ham kasallik nomlari ko'p uchraydi. Masalan, "*Tishing to'kilsin*", "*Og'zingdan qoning kelgur*", "*Qulog'ingga tom bitsin*", "*Qulog'ingga qo'rg'oshin quyilsin*", "*Chakaging sinsin*" singari qarg'ishlarda insonga o'lim, og'ir kasalliklarni tilash motivi anglashiladi.

Xalqning "Tuhmatga uchragan kelin" nomli ertagida kelin o'ziga tuhmat yog'dirgan xizmatkorni "Huv, qo'ling shol bo'lgur" deb qarg'agan ekan, o'sha kuni kechasi xizmatkorning bir qo'li shol bo'lib qolibdi. Yana shu ertakda kelin o'g'riga qarab: "Sen pes bo'lg'in!" deb qarg'agan ekan, o'g'ri pes bo'lib qolibdi.

¹⁵ Bunday munosabatlar tўғrisida prof. O.Бозоровнинг махсус тадқиқоти яратилган: Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент: Фан, 1995.

¹⁶ Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филология фанлари доктори (DSc)... диссертация. – Бухоро, 2022. – Б.181.

Kelin karvon o'g'risiga qarab: "He, ko'zing ko'r bo'lsin!" degan ekan, o'g'ring ko'zi ko'r bo'lib qolibdi" deya hikoya qilinadi.

O'zbek xalqimiz yaratuvchan, u so'zdan shunday o'rinli foydalanadiki, qudratli kalomning ifodasi nafaqat badiiy asarlarda o'z bo'yini namoyon etadi, balki insonning dardi, bemorligi, kasalligini ifodalovchi birliklarni ham quloqqa yoqimli eshitiladigan nomlar bilan ifodalaydi.

Uchinchi fasl "**Folklor asarlarida tibbiy birliklarning genderologik tavsifi**" deb nomlangan. Tadqiqotimizning ushbu faslida xalqning "ayol homiy ruh" haqidagi mifologik qarashlari momo obrazining kelib chiqishiga asos bo'lganligi izohlaniladi. Xalqning tasavvuricha, momolar ruhi ayollarga, ularning faoliyatiga, sog'ligiga hamisha yoru madadkor bo'ladi. Aniqrog'i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar, kult miflari bilan tutash sanaladi. Masalan: *Gung momo* – tirikligida gung, gapira olmaydigan bo'lib yashab o'tgan ayol ruhi. Aytishlaricha, ko'pincha ular shomon ayollarga homiylik ko'rsatarkan.

Kinna momo ruhi odamlarning qorin bo'shlig'iga joylashib olib, kuchli og'riq hosil qilishi, nigohi o'tkir odamlarga o'rnashib, shu orqali atrofdagilarga zarar yetkazishi aytiladi. *Ro'dapo momo* juda ozg'in va kasal ayol qiyofasida zarar yetkazuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. U asosan, sog'lom va to'laqonli odamlarga zarar yetkazishga urinishi ta'kidlanadi. *Shalpar momo* odamga yomon ta'sir ko'rsatib, uni kuchsizlantiruvchi, shalpaytirib, ojizlantirib qo'yuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. *Sariq momo* yovuz ruhlari Sariqiz yoki Sariq momo sariq sochli qiz yoki sariq tusli tovuq ko'rinishida ayollarga hujum qilishi aytiladi¹⁷. O.A.Suxareva¹⁸ tadqiqotlarida *Alamon momo* ayollarga ozor, dard yetkazuvchi, odamga kutilmaganda tashlanib qoladigan maxluq ko'rinishidagi yovuz ruhlardan biri sifatida ham talqin qilinadi. *Shaloyim momo* ko'pincha chaqaloqlarga ozor yetkazuvchi, ularni nobud qilishga intiluvchi yovuz kuch sifatida talqin etiladi. *Xunxor momo* esa jonzotlarning, ayniqsa, insonlarning qonini so'rib ichuvchi momo sifatida ko'rsatiladi. Xunxor momo uchun ko'pincha uloq, qo'y, tovuq kabilardan qon chiqarilib, u zarar yetkazgan bemor davolanadi. Aks holda Xunxor momo bemorning qonini so'rib, uni holsizlantirishi, halok etishi mumkinligi aytiladi. Jumladan, *qizamiq momo* badanga qizilcha toshishi yoki qizamiq kasalligiga nisbatan ishlatiladigan feminologik nom bo'lsa, *qora momo* suvchechak (ilmiy tilda "vetryanka") kasalligi nomidir.

Xalqda ayol kishining ko'kragi uchinsa - ko'krak uchi qizarib, yiringlasa, qattiq og'riq beradi. U bu holatida go'dagini emiza olmaydi. Shunda doya momolar uning ko'kragini o'lik yuvilgan qo'lqop bilan silab davolashgan.¹⁹

Dissertasiyaning uchinchi bobi "**Kasallik atamallari va ularni davolovchilar nomlarining semantik-struktural tuzilishi tahlili**" deb atalgan. Bobning birinchi fasli "**Tibbiy terminologiyada xalqona kasallik atamalarining semantik-struktural ifodalanishi**" deb nomlangan.

Tibbiy terminlarni hosil qilishda xalq o'zining kuzatishlariga, dunyoqarashiga tayangan. Tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirish shuni ko'rsatadiki,

¹⁷ Худойқулова Л. Ўзбек фольклорида Момолар култи. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 4-сон. – Б.50-53.

¹⁸ Сухарева О.А. // Биобиблиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана / Сост. Б.В. Лунин. Ташкент, 1977. С. 157-160.

¹⁹ Ўраева Д. Гулафшон айтимларининг айрим бадий хусусиятлари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 201. – 2-сон. – Б.42-45

undagi ko‘pgina terminlar xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari asosida sof semantik usul bilan yasalgan.

